O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

Ra’no XATAMOVA,
PhD, O‘zbekiston tarixi davlat muzey bo‘lim mudiri, O‘zRFA, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: xatamovar16@gmail.com, Orcid: https://orcid.org/0009-0001-2017-3481

O‘zMU dotsenti, t.f.d S.Jo‘rayeva taqrizi asosida

REASONS FOR THE ESTABLISHMENT OF THE CARPET INDUSTRY DURING THE SOVIET PERIOD

Annotation
This article scientifically highlights the reasons, economic, political, and social factors behind the organization of the carpet industry in the Turkestan region starting from the second half of the 19th century and during the Soviet period. Furthermore, based on the analysis of archival documents and scientific literature, the process of the crisis of traditional craftsmanship as a result of the centralized economic policy of the Russian Empire and the Soviet regime, the organization of cooperatives and artels, as well as their transformation into state factories, is revealed.
Key words: Carpet, craftsmanship, Soviet power, artel, cooperation, industrialization, economic policy, Turkestan, Uzbekistan.

ПРИЧИНЫ ОРГАНИЗАЦИИ КОВРОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРИОД СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

Аннотация
В данной статье на научной основе освещаются причины, экономические, политические и социальные факторы организации ковровой промышленности в Туркестанском крае со второй половины XIX века и в период советской власти. Кроме того, на основе анализа архивных документов и научной литературы раскрываются процесс кризиса традиционного ремесла в результате централизованной экономической политики Российской империи и советского режима, организация кооперативов и артелей, а также их преобразование в государственные фабрики.
Ключевые слова: Ковер, ремесленничество, советская власть, артель, кооперация, индустриализация, экономическая политика, Туркестан, Узбекистан.

SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA GILAM SANOATINI TASHKIL ETISH SABABLARI

Annotatsiya
Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o‘lkasida va Sovet hokimiyati davrida gilam sanoatini tashkil etish sabablari, uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillari ilmiy asosda yoritib berilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi va sovet rejimining markazlashgan iqtisodiy siyosati natijasida an’anaviy hunarmandchilikning inqirozi, kooperatsiya va artellarning tashkil etilishi, shuningdek, davlat fabrikalariga aylantirilish jarayonlari arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: Gilam, hunarmandchilik, Sovet hokimiyati, artel, kooperatsiya, sanoatlashuv, iqtisodiy siyosat, Turkiston, O‘zbekiston.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasini egallashga bo‘lgan maqsadi natijasida hunarmandchilik sohalari, jumladan gilamdo‘zlik sohasi ham iqtisodiy va ma’muriy jihatdan isloh qilina boshladi. Bu jarayonda an’anaviy xonadon hunarmandchiligining o‘rnini bozor munosabatlari va sanoat shakllari egallay boshladi [1. P.65–68.]. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasining asosiy paxta bazasiga aylantirildi. Transkaspiy (1888-y.) va Orenburg-Toshkent (1906-y.) temir yo‘llarining qurilishi o‘lkani Rossiyaning sanoat markazlari bilan bog‘lab, paxta ekishni ommalashtirdi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sovet hokimiyati davrida gilam sanoatining tashkil etilish sabablarini, uning iqtisodiy-siyosiy omillarini hamda mahalliy hunarmandchilikka ko‘rsatgan ta’sirini har tomonlama o‘rganishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuni o‘rganish davomida bir qator ilmiy manbalar va arxiv hujjatlariga murojaat qilindi. Xususan, Sohee Ryukning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi tasavvuridagi Markaziy Osiyo gilamlari tahlil etilgan bo‘lsa [1], N. Tursunov va K. Qobilovlarning ishlarida Sharqiy Buxoro shaharlarida hunarmandchilik turlari ochib berilgan [2]. Shuningdek, statistik ma’lumotlar to‘plamlari [3] hamda K.F. Butenovning asarlari [4] orqali Buxoroda zavod va hunarmandchilik ishi yoritilgan. F.A. Mixaylovning etnografik ocherklari [5], O‘zbekiston Milliy arxivi fondlaridagi hujjatlar [8], O. Ostonovning tadqiqotlari [7, 8], A. Xakimovning O‘zbekiston san’atiga bag‘ishlangan ishlari [9], S.M. Dudinning asarlari [10] hamda V.G. Moshkova tadqiqotlari [11] mazkur maqolaning nazariy-metodologik asosini tashkil etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, xronologik, tizimli tahlil va mantiqiylik tamoyillariga tayinildi. Arxividagi dastlabki hujjatlar, statistika raqamlari va statistik yilliklar tanqidiy tahlil qilindi. Sovet hokimiyatining iqtisodiy siyosati, kooperatsiyalash jarayonlari va ularning oqibatlari obyektiv tarixiy yondashuv asosida baholandi.

Tahlil va natija. Ma’lumki qadimdan gilam uchun zarur bo‘lgan jun, paxta, ipakni qishloq dehqonlari va chorvadorlar yetqazib bergan [2, B. 45.]. Bu davrga kelib paxtachilikning haddan tashqari rivojlanishi va sug‘orishni talab qiluvchi ekin maydonlarining kengayishi hisobiga mahalliy hunarmandchilik, jumladan, gilam to‘qish uchun zarur bo‘lgan sifatli jun va mahalliy xom ashyo resurslarini yetishtirish hamda chorvachilikka qaratilgan e’tibor kamaydi. Paxta kompaniyalari va sudxo‘rlar dehqonlarga oldindan pul va mahsulotlar berib (avans tizimi), ularni qattiq iqtisodiy qaramlikka tushirib qo‘ydi. Natijada mayda dehqonlar va hunarmandlar o‘z mustaqilligini yo‘qotdi, og‘ir qarzdorlik

girdobiga tushdi. Bu esa an’anaviy kasb-korlarga, jumladan, ko‘p mehnat va vaqt talab qiladigan gilamchilikka sarmoya va e’tiborning kamayishiga olib keldi. Rossiya va Yevropadan keltirilgan arzon sanoat tovarlari, manufaktura mahsulotlari mahalliy bozorni egalladi. Imperiya bozorining talablari va ommaviy sanoatlash jarayonlari sharoitida an’anaviy qo‘l to‘quvchiligi o‘z mavqini qisman yo‘qotdi, biroq u o‘lkaning chekka hududlari va ko‘chmanchi hamda yarim ko‘chmanchi aholi o‘rtasida maishiy ehtiyoj hamda ichki bozor uchun saqlanib qoldi [3].

Rossiya imperiyasi davrida Buxoro xonligida og‘ir sanoat va konchilikning rivojlanmagani tufayli hatto kichik hunarmandchilik korxonalari ham to‘laligicha Rossiyadan keltiriladigan tayyor mahsulotlar yoki ularning qoldiqlariga tayanib qolgan edi. Rossiya imperiyasi o‘z sanoat korxonalarini arzon xom ashyo (paxta, jun) bilan ta’minlash maqsadida mintaqani xom ashyo bazasiga aylantira boshladi. Mahalliy hunarmandlar o‘zlarining an’anaviy xom ashyo bazasidan mahrum bo‘lib, rus bozoridan kirib kelayotgan sanoat mahsulotlari bilan tengsiz raqobatga kirishishga majbur bo‘ldilar. Buxoroda hunarmandchilik texnikasi juda sodda va ortda qolgan bo‘lib, hukumatning ilm-fan va yangi texnologik usullarga e’tiborsizligi kuzatilgan. Yevropa va Rossiyada sanoat inqilobi yuz berib, mexanizatsiyalashgan fabrikalar va manufakturalar paydo bo‘layotgan bir paytda, Markaziy Osiyo hunarmandchiligi asrlar davomida o‘zgarmagan qo‘l mehnatiga asoslangancha qoldi. Bu esa ishlab chiqarish sur’ati va sifati jihatidan uni tanazzul sari yetakladi.

Buxoro amirligida feodal o‘zboshimchalik, og‘ir soliqlar va hukumatning tadbirkorlar kapitalini ochiqchasiga musodara qilish xavfi mavjudligi sababli sanoat va yirik hunarmandchilik korxonalarini ochishga hech kim jur’at eta olmagan. Mulkdorlar o‘z kapitallarini yashirishga majbur bo‘lganlar. Bunday iqtisodiy va siyosiy muhit gilamdo‘zlik hamda yuqori mahorat talab qiladigan to‘qimachilik turlarining keng miqyosda rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, uni faqat oilaviy-uy xo‘jaligi darajasiga tushirib qo‘ydi [4].

Sanoatlashuviga qadar faqatgina ichki bozorni ta’minlash maqsad bo‘lgan bo‘lsa, XIX asr oxirida Turkiston o‘lkasini Rossiya imperiyasi tomonidan egallanishidan so‘ng gilam mahsulotlari tashqi savdo aylanmasiga jalb etildi [1, P.74-76]. Bu paytda Zakaspiy viloyatining asosiy daromad manbalaridan biri gilam mahsulotlari edi [6]. XIX asrning o‘rtalariga kelib rus bozorlarining talablariga moslashish jarayoni mahalliy hunarmandchilik buyumlarining tashqi ko‘rinishi va mazmunini o‘zgartirdi (transformatsiya). An’anaviy naqshlar, ranglar va tayyorlash usullari tashqi bozor xususan, Rossiya imperiyasi iste’molchilari didiga qarab moslasha boshladi. 1912-yili Qo‘qon uyezdida 35 ta xonadon gilam to‘qish bilan shug‘ullangan bo‘lib, har bir xonadon yiliga 300 so‘m daromad qilgan. Hukumat tomonidan bu sohaga ko‘p e’tibor berilmagani sababli yana ham kamayib boravergan [7, B. 58]. Turkiston hunarmandlari esa 1915-1916-yillari 4 million dona gilam ishlab chiqazgan [8].

Shunga qaramay XX asrga kelib Rossiya va Yevropa bozorlarida turkman va buxoro gilamlariga qiziqish ortib bordi. Bu esa ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish zarurligini ko‘rsatar edi. Natijada artellar tashkil etilib bozor uchun maxsus gilamlar to‘qila boshladi. Ko‘pgina boshlang‘ich artellar tuzilgani bilan ularning faoliyat yuritishi uchun na zamin, na tayyorgarlik va na aniq reja bor edi. Ular ish boshlashi bilanoq hech narsaga erisha olmagan. Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysidagi ayrim artellar esa umuman xomashyo (jun) bilan ta’minlanmagan va ularning faoliyati to‘xtab qolgan [8, R-3-fond, 1-ro‘yxat, 403-yig‘majild, 183 varaq.]. Mazkur muammolarni bartaraf etish va ishlab chiqarishni tartibga solish maqsadida 1924-yil Turkiston hunarmandchilik uyushmasi (Turkromsoyuz) tashkil topdi. Bu uyushmaning tashkil topilishi bilan bir qatorda o‘sha yili Samarqand, Farg‘ona va Sirdaryo hunarmandchilik uyushmalari ham tuzildi. 1924-yil 1-oktyabrga kelib bu mahalliy uyushmalarning barchasi tugatildi. Hunarmandchilik arteli esa ushbu davrga kelib 274 tani tashkil etib, ularda 1604 nafar a’zo bor edi, biroq ularning xo‘jalik qo‘llovi va ish qobiliyati juda past bo‘lgan. Yangi uyushma birlashmasini yaratish uchun yetarli sharoitlar bo‘lmagani sababli artel tarmog‘i Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi tizimiga (keyinroq Turkredselsoyuz, keyinchalik Uzbekselsoyuz sifatida) kiritildi [8, R-297-fond, 1-ro‘yxat, 100-yig‘majild, 1 varaq.]. Bunday ikki xil turdagi kooperatsiyaning sun’iy ravishda birlashtirilishi sanoat artellarining rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazdi. Shunga qaramasda 1923-yil Zarafshon vohasidan 30 000 so‘mlik gilam Nijegorod yarmarkasiga olib borilgan. 1924-yilda esa qiymati 30 000 so‘mlik gilam sotilgani keltirilgan [9].

Respublikada sanoat va mehnat kooperatsiyasining mustaqil markazini yaratish maqsadida 1925-yilda Orgbyuro tuzilib, tayyorgarlik ishlari olib borildi. Shu asosda 1925 yil 4 oktyabrda O‘zbekiston hunarmandchilik uyushmalari (Uzpromsoyuz)ni tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi va respublika markazining mustaqil faoliyati boshlandi. 1926-yilgi umumsoyuz o‘zbek demografik ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning barcha shahar va shaharchalarida jami 78 599 nafar hunarmand qayd etilgan. Ushbu hunarmandlar asosiy ishlab chiqarish turlari bo‘yicha taqsimlangan bo‘lib, xususan, to‘qimachilik, gilamdo‘zlik va ipakchilik tarmoqlari respublikadagi mayda ishlab chiqarish va hunarmandchilik balansida salmoqli o‘rin egallagan. Fuqarolar urushidan keyingi davrda qishloq xo‘jaligi va iqtisodiy muhitning barqarorlashuvi, shuningdek, aholining o‘z tug‘ilgan joylariga qaytishi natijasida hunarmandchilik artellalari ham qayta tiklana boshladi [8, O‘zMA, R-297-fond, 1-ro‘yxat, 100-yig‘majild, 3 varaq.]. 1920–1930-yillarda iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli hunarmandchilik inqirozga uchragan bo‘lsa-da, keyinchalik Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Termiz va boshqa joylarda maxsus gilamchilik artellari (“Umid”, “Ayyollar mexnati”, “Hujum” kabilar) tashkil etilib, soha qayta jonlantirilgan [10, B.182.]. Bu esa O‘zbekiston hunarmandchilik uyushmalari “Uzpromsoyuz” tizimi orqali gilamdo‘zlik va boshqa hunarmandchilik turlarini kooperatsiyaga qamrab olish imkoniyatini yaratdi.

Biroq bu an’anaviy naqsh va uslubning bir xil qolipga solinishiga olib keldi. S.M.Dudin ta’kidlaganidek, XIX asr oxirida gilam mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi an’anaviylikning kamayishiga sabab bo‘ldi [11, S.11-12.]. XX asrning boshlarida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar, xususan, Rossiya imperiyasining parchalanishi va 1920-yillarning boshida Markaziy Osiyoda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi an’anaviy hunarmandchilik tizimini butunlay o‘zgartirib yubordi. Sovet mafkurasi ostida amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar natijasida asrlar davomida oilaviy sir va uy mehnati sifatida rivojlanib kelgan gilamdo‘zlik san’ati majburiy jamoalashtirish va sanoatlashtirish bosqichiga o‘tkazildi. Davlat tomonidan maxsus artellar, kolxozlar va yirik davlat gilam fabrikalari tezlikda tashkil etildi. Bu jarayon ishlab chiqarish hajmining keskin o‘sishiga va mahsulotning ommaviylashuviga xizmat qilgan bo‘lsa-da, hunarmandlarning individual ijodkorligi, naqsh solishdagi erkinligi va asl milliy texnikalarning yo‘qolishiga olib keldi.

XIX asrga qadar gilamdo‘zlik asosan an’anaviy ustoz-shogird an’anasiga ko‘ra avloddan avlodga o‘tib kelgan bo‘lsa, Sovet hukumatining kelishi sanoatlashuvni tezlashtirib yubordi. Bunga qadar gilam to‘qishda asosan ayollar qo‘l mehnatidan foydalanilgan. Endi esa erkak va ayol teng faoliyat olib boruvchi sohaga aylandi.

XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillari boshlarida Markaziy Osiyo respublikalarida an’anaviy hunarmandchilik tizimini sovetcha rejali iqtisodiyot qoliplariga moslashtirish jarayoni faollashdi. 1927-yildan boshlab boshlangan ushbu islohotlar mahalliy aholining asriy ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, xususan, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot hamda chorvachilik an’analari bilan to‘qnashdi. Gilamdo‘zlik sohasini keng isloh qilish maqsadida ekspeditsiya tashkil etildi [8, R-3-fond, 1-ro‘yxat, 403-yig‘majild, 178-238 varaq]. 1920-yillarning oxiriga kelib, sovet hukumati mahalliy hunarmandchilikni, ayniqsa, chet elga sotib yaxshigina xorijiy valyuta olish mumkin bo‘lgan gilamdo‘zlik sohasini davlat nazoratiga olish va qayta tashkil etishga alohida e’tibor qarata boshladi. Shu sababli 1928-yil 1-martda hech qanday imkonsiz va mavjud sharoitlar hisobga olinmasdan, mutloqa hisob kitobsiz Andijon okrugida artellar tashkil etildi [8, , R-3-fond, 1-ro‘yxat, 403-yig‘majild, 184 varaq.].

XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmiga kelib, sovet hokimiyati tomonidan mahalliy hunarmandchilik tarmoqlarini, xususan, an’anaviy gilamchilik sohasini markazlashgan iqtisodiy tizimga integratsiya qilish va davlat nazoratiga olish jarayoni faollashdi. Urush va inqilobiy to‘ntarishlar oqibatida chuqur inqirozga yuz tutgan sohani qayta tiklash uchun an’anaviy ishlab chiqarishni davlat tomonidan qayta tashkil etish zarurati tug‘ildi.

1928-yil 10-yanvardagi O‘rta Osiyo Davlat rejalashtirish qo‘mitasi (Sredazgosplan) Savdo-sanoat seksiyasi qoshidagi Ikkilamchi tovarlar komissiyasining “№7” raqamli majlis bayonnomasi bu boradagi dastlabki huquqiy va tashkiliy qadam hisoblanadi. Mazkur hujjatda qayd etilishicha, o‘sha davrda O‘rta Osiyoda gilamchilik ishlab chiqarishi “chuqur inqiroz” holatida bo‘lgan. Komissiya mavjud vaziyatdan chiqish va sohani qayta tiklash maqsadida faqatgina vaqtinchalik va favqulodda choralar sifatida maxsus “Gilamchilik ishlab chiqarishi bo‘yicha Aksionerlik Jamiyati” tashkil etish zarurligini ilgari suradi. Yangi tashkil etilayotgan tuzilmaning iqtisodiy va geografik qamrovi xususida so‘z yuritilganda, majlis a’zolari ushbu ishga tizimli yondashganlar. Xususan, hujjatning 5-bandiga muvofiq, jamiyat o‘z faoliyatini nafaqat an’anaviy gilamchilik markazi hisoblangan Turkmanistonda, balki o‘z ishlab chiqarish rayonlariga ega bo‘lgan O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston hududlarida ham keng yoyishi lozimligi belgilanadi. Shu bilan birga, komissiya O‘rta Osiyo gilamchilik tizimini Kavkaz orti bilan birlashtirishni iqtisodiy va tashkiliy jihatdan “maqsadga muvofiq emas” deb hisoblaydi.

Bu esa mahalliy ishlab chiqarish va hududiy maktablarning o‘ziga xosligini alohida saqlab qolish istagi bo‘lganligidan dalolat beradi. Jamiyatning moliyaviy asosini mustahkamlash uchun dastlabki kapital miqdori 400–500 ming rubl atrofida baholanadi. Loyihaga ko‘ra, ishlab chiqarishni moliyalashtirish asosan mahalliy sanoat kooperatsiyalari orqali, ular mavjud bo‘lmagan joylarda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Mahalliy hunarmandlardan tayyor mahsulotlarni sotib olish va ularni tashqi bozorga chiqarish bo‘yicha monopol vakolatlarning aynan ushbu Aksionerlik Jamiyatiga berilishi talab etiladi. Bu sohadan keladigan xorijiy valyuta tushumlarini to‘liq davlat nazoratiga olish istagini ko‘rsatadi. Bu jarayon oson kechmaganligini Butunittifoq sanoat kooperatsiyasi (Vsekopromsoyuz) vakilining ushbu AJ tashkil etilishiga rasman qarshi chiqqani va o‘zining alohida fikrini taqdim etgani ham tasdiqlaydi.

Muzeyshunoslik va madaniy merosni saqlash nuqtayi nazaridan majlis qarorining 8-bandi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Unda Jamiyat zimmasiga nafaqat tijorat faoliyati, balki “gilamchilikni yuksaltirish va qayta tashkil etish bo‘yicha madaniy vazifalarni” ham olish majburiyati yuklanadi [8, R-10-fond,1-ro‘yxat, 745-yig‘majild, 67 -varaq.]. Bu esa sovet iqtisodiy organlarining gilamchilikka nafaqat xomashyo va daromad manbai, balki tizimli ravishda qayta isloh qilinishi, badiiy va madaniy jihatdan nazorat etilishi lozim bo‘lgan xalq amaliy san’ati turi sifatida ham yondashganini ko‘rsatadi.

O‘sha davrdagi Markaziy Osiyo hunarmandchilik kooperatsiyasi (Sredazkraybyuro promkooperatsii) 1929-yil fevral oyidagi arxiv hujjatlari milliy gilamchilikning qadimiy an’analarini saqlab qolgan holda, uni qanday qilib sanoat usuliga o‘tkazishga harakat qilinganini ko‘rish mumkin. Shu sababli ham 1929-yil birinchi mahsus ekspeditsiya tashkil etildi. Ekspeditsiya O‘rta Osiyo davlat universiteti (SAGU) va O‘rta Osiyo Iqtisodiy kengashi qoshidagi Sharq ayollarining ijtimoiy hayotini yaxshilash komissiyasi (KUBT) tomonidan tashkil etilib, unda ko‘plab olimlar ishtirok etgan [12].

XX asrning 50–70-yillarida O‘zbekiston SSR yengil va mahalliy sanoat tizimida ishlab chiqarish quvvatlarini yiriklashtirish va boshqaruv apparatlarini vertikal tizim asosida markazlashtirish siyosati ustuvor yo‘nalishga aylandi. Buning natijasida XX asrning 60-yillari boshida mahalliy miqyosdagi tarqoq sexlar va ishlab chiqarish artellari tugatilib, ularning negizida davlat fabrikalari tashkil etildi. Yirik fabrikalar va vazirlik tizimidagi boshqarmalarda rahbarlik lavozimlariga mahalliy xotin-qizlarning tayinlanishi sho‘rolar davri gender siyosatining amaliy natijasi bo‘lib, ayollarning jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy mavqeini tubdan yuksaltirdi.

Xulosa. Sovet hokimiyati davrida gilam sanoatining tashkil etilishi murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lgan. Bir tomondan, soha davlat tomonidan markazlashtirilib, moliyaviy va moddiy qo‘llab-quvvatlandi, ishlab chiqarish hajmi oshdi hamda xotin-qizlarning bandligi ta’minlandi. Ikkinchi tomondan, markazlashgan rejali iqtisodiyot va mafkuraviy tazyiqlar natijasida an’anaviy xalq amaliy san’atining o‘ziga xosligi, milliy naqshlar erkinligi va ustoz-shogird an’analari qisman yo‘qolish xavfiga duch keldi.

ADABIYOTLAR

1. Sohee Ryuk, “Patterns and Collections: Carpets from Central Asia in the Imperial Russian Imagination” Acta Via Serica, Vol. 7, No. 2, © Academia Via Serica, Keimyung University, December, 2022: P.65–68
2. Tursunov N., Qobilov K. Sharqiy Buxoro shaharlarida hunarmandchilik turlari // “Moziydan sado” (Exo istorii / Echo of history). — Toshkent, 2024. — № 1/101. — B. 45.
3. Статистический Ежегодник ТССР. 1917–1923 г.г. Том I. Ташкент, Издание ТЭС-а, 1924 11-12с.,,
4. Бутенов К.Ф. Заводское дело в Бухарии //Горный журнал. Ч. V, кн IX. – СПб. 1842. — С. 137–175
5. F. A. Mikhailov, Tuzemtsy Zakaspiiskoi oblasti i ikh zhizn: Etnograficheskii ocherk (Askhabad: Parovaya Tip. K. M. Fedorova, 1900).
6. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар», 1973, № 1, К. Каримов, Г. Каримова. 58 б.
7. Ostonov, O. O. XX asrning 20-yillarida O‘zbekistonda hunarmandchilik ishlab chiqarishining umumiy holati (Zarafshon vohasi misolida)// “Yosh olimlar axborotnomasi” — “Vestnik molodых uchenых” — “The bulletin of young scientists”. — 2023. — № ... — B. 137–142.
8. O‘zbekiston Milliy arxivi.
9. Ostonov, O. O. XX asrning 20-yillarida O‘zbekistonda hunarmandchilik ishlab chiqarishining umumiy holati (Zarafshon vohasi misolida)// «Yosh olimlar axborotnomasi» — «Vestnik molodых uchenых» — «The bulletin of young scientists». — 2023. — № ... — 139 b.
10. Хакимов А. Искусство Узбекистана: история и современность. — Ташкент: Изд-во ж-ла “San’at”, 2010. — С. 182.
11. С.М. Дудин Ковровые изделия Средней Азии. – Ташкент, 1928. С.11-12.
12. Мошкова В. Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX — начала XX вв. — Ташкент: Фан УзССР, 1970. С. 15-16.